

TARIXIY SAMARQAND IRRIGATSIYA TIZIMLARI

O`roqova Dildora Qodirovna

Toshkent Arxitektura va qurilish institute

Rabbar Shoisoyev

Toshkent Arxitektura va qurilish institute

Izzatilla Kenjayevich

Toshkent Arxitektura va qurilish institute

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qadimgi zarafshon vodiysi sug`orilishi tarixi, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar haqida so`z yuririladi

KALIT SO`ZLAR: antik davr va ilk o`rta asrlar, boy arxeologik materiallar, sug`orish arteriyalari

KIRISH

Quyi Zarafshonning qadimgi sug`orilgan yerlari qadim zamonlarda o`zining kuchli oqimi bilan Amudaryogacha yotib borgan Zarafshon daryosining Amudaryo bilan aloqasining keyinchalik batamom uzilishi Zarafshon daryosi suv balansining qisqarishi yoki Amudaryogacha quyilib turgan irmog`ining boshqa tomonga burilib ketishiga bog`liq bo`lmay, balki uni jilovlash uchun bel bog`lagan ming-minglab aholining asrlar davoxida qiltan mashaqqatli mehnat faoliyatining samarali natijasi tufayan sodir bo`lgan. Chunki Zarafshon vodiysi bo`ylab, daryodan bosh olgan katta-kichik sug`orish arteriyalari faqat vodiyl landishaftinigina o`zgartirib qolmay, balki daryo xarakteriga, shu jumladan, uning oqim yo`nalishiga ham ma'lum darajada ta`sir etgan edi. Daryo oqimi asosiy qismining irrigatsiya sistemalariga taralib yuborilishi va uning vodiyl bo`ylab qad ko`targan shahar va qishloqlarga sarflanib ketishi, shubhasiz, Zarafshonning hayqirib o`zboshimchalik bilan Amudaryoga tomon intilgan jo`shqin oqimini susaytiribgina qolmay, balki bu ikki daryo o`rtasidagi o`zaro qadimgi aloqaning uzil-kesil uzilishiga sabab ham bo`lgan edi. Nihoyat, vodiyyda sug`orma dehqonchilikning rivojlanishi natijasida, Zarafshonning oqimi Amudaryogacha yotib borishi u yoqda tursin, hatto uning suv balansi vodiyni suv bilan to`la ta'minlay olmadi. Hatto daryoning quyi qismiga joylashgan Buxoro vohasida Vaqt bilan suv tanqisligi sodir bo`lib turardi. Shubhasiz bu masala vodiyning o`zlashtirilish tarixiy dinamikasi bilan bog`liqdir.

ASOSIY QISM

Quyi Zarafshonning o‘zlashtirilish tarixiy dinamikasini aniqlash uchun, avvalo Buxoro vohasida, ayniqsa, uning qadimgi sug‘orilgan yerlarida topib tekshirilgan arxeologik yodgorliklarning qisqa bo‘lsa ham umumiy obzori ustida to‘xtab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Buxoroning qadimgi sug‘orilgan yerlarining eng katta asosiy qismi Zarafshon daryosining quyi oqimida, uning delta xarakteridagi qadimgi yirik irmoqlaridan biri Vobkent daryo etaklarida joylashgan bo‘lib, u Buxoro vohasining g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy chegarasiga yondashgan. Janubdan shimolga tomon qariyb 55 km cho‘zilgan bu qadimgi dehqonchilik massivining maydoni taxminan 100—120 ming gektarga teng bo‘lib, uning tashqi chegarasi vohaning shimoli-g‘arbiy qismida — hozirgi obod yerlar zonasidan 10—12 km, g‘arbida esa qariyb 35 km tashqaridan — Urganjiy dashti ichidan o‘tadi. Bu rayonning arxeologik manzarasi mezolit davrining ahyon-ahyonda uchrab turadigan chaqmoqtosh qurollaridan tortib, to antik davr va ilk o‘rta asrlarning yirik inshootlari — xom g`isht va paxsadan bino qilingan qadimgi shaharlar, qal’alar va qasrlarning xarobalari hamda bepoyon Qizilqumga tutashib ketgan suvsiz bu territoriyaning qachonlardir sug‘orilib obod etilishida hayotbaxsh rol o‘ynagan qadimgi irrigatsiya tarmoqlarining qurib qolgan izlarini ham o‘z ichiga qamrab olgan xilma-xil arxeologik yodgorliklarning kompleksi bilan ifodalanadi.

Buxoroning qadimgi sug‘orilgan yerlarida 50-yillardan boshlab muntazam va keng ko‘lamda olib borilayotgan arxeologik tekshirishlarning natijasida quyi Zarafshonda yashagan qadimgi aholining yaratgan yuksak madaniyatiga ond juda boy arxeologik materiallar qo‘lga kiritildi. Ular o‘z navbatida Buxoro vohasining o‘zlashtirilishi tarixiy bosqichlarini, shu jumladan, ibridoiy va sug‘orma dehqonchilikning paydo bo‘lishi hamda yirik irrigatsiya sistemalariga o‘tish kabi davrlarni belgilab chiqish imkonini berdi.

Reliefi va magistral suv ta’minoti bo‘yicha Buxoroning qadimgi sug‘orilgan yerlari ikkiga: shimoliy va janubiy qismlarga bo‘linadi. Uning shimoliy qismi Buxoro viloyati Roxitan rayonining shimoli-g‘arbiy chegarasiga tutashgan va antik davr yodgorliklari I, II, III Qizilqir, Setalak, Nortepa, Talpubba hamda ilk o‘rta asr shahar xarobalari Xo‘japorson, Xo‘jaqul, Talisang kabi bir qancha tepalar joylashgan territoriyalarni o‘z ichiga oladi. Janubiy qismiga esa Buxoroning Romitan va Sverdlov rayonlari g‘arbida joylashgan Varaxsha xarobalarini to‘rt tomondan o‘rab olgan keng dashtlik kiradi. Qizilqir va Xo‘japorson yodgorliklari kompleksini o‘z ichiga olgan qadimgi sug‘orilgan yerlar shimoliy qismining umumiy maydovi o‘rta hisobda 20—25 ming gektarga teng bo‘lib, u shimoldan janubga 20 km va sharqdan g‘arbgaga tomon 10—12 km cho‘zilgan. Shimol va g‘arb tomonlardan uni Qizilqum o‘rab turadi, janubidan Shimoliy Romitan kollektori va sharqidan eski Amir Temur zaxkashi kesib o‘tadi. Yuqorida ko‘rsatilgan sababga ko‘ra, Buxoroning qadimgi sug‘orilgan yerlarini arxeologik manzarasida miloddan avvaagi VI—IV asrlarni o‘z ichiga olgan yirik irrigatsiya sistemalariga o‘tish davriga mansub moddiy-madaniyat yodgorliklarining izlari deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Fikrimizcha, miloddan avvalgi 1 ming yillikning o‘rtalarida quyi Zarafshonning sug‘orilib

obod etilgan yerlar chegarasi hozirgi voha doirasidan tashqariga chiqmagan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas. Afsuski, vohaning bir necha ming yillar davomida dehqonchilik qilinib kelayotgan obod qismida to yaqin vaqlargacha arxeologik tekshirishlar mutlaqo o‘tkazilmagan. Biroq Buxoro yoshini aniqlash maqsadida shahar territoriyasida keyingi yillarda olib borilayotgan qazish ishlari natijasida ko‘hna zindon yaqinida madaniy qatlamning ostki qismidan milodgacha bo`lgan IV—III asrlarga oid sopol idish bo‘laklari topildi.

XULOSA

Garchi bu topilmalar yuqorida aytilgan fikrlarni tasdiqlash uchun asos bo‘la olmasada, har holda ular quyi Zarafshonda miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmiga mansub madaniy qatlamning mavjud ekanidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. A.R.Muhammadjonov. Quyi zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi.(Qadimgi davrdan to XX asrgacha) “Fan”,T-1972.
2. A.R.Muhammadjonov. O‘zbekistonning qadimgi gidrotehnika inshootlari. “O‘zbekiston” T-1997.